



Xalq qo'shiqlarida ona konseptining ifodalanishi

Ulugmuratova Soxiba Azamatovna

SamDU tayanch doktoranti

O'zbekiston, Samarqand

sohibasilver@gmail.com

Annotatsiya. Xalqimizda ota-onani behad ulug'lovchi, ularning nuroniy, tiniq va nurafshon siymolarini gavdalantiruvchi ajoyib dostonlar, ertaklar, afsonalar, naql-rivoyatlar maqollar ham talaygina. Biz ushbu maqolamizda mana shu mavzularga to'xtalib o'tamiz. “Ona” tushunchasining ikki tomonlama kognitiv doirasi va madaniy ahamiyatga ega tuzilishi haqida gapirish mumkin. Shu munosabat bilan “Ona” tushunchasining mazmuni nafaqat barcha madaniyatlar uchun umumiy ma'noga ega, balki turli etnik madaniyatlarda ham farqlanadi va shuning uchun “Ona” toifasini tipologik jihatdan har xil tillar materiallari bo'yicha o'rganish dolzarbdir.

Tayanch so'z va iboralar: Qo'shiq, ertaklar, afsonalar, naql-rivoyatlar, maqollar, stereotiplar.

Quyidagi aytishuv namunasi ona va qiz o'rtasidagi baxs shaklida yaratilgan qo'shiqlardan biri bo'lib hozirgi kunga qadar o'z shaklini o'zgartirmagan.

- Onajon. onajon!
Boshginam og'riydi-ya.
- Boshginangdan onang aylansin.
- Nimalarga og'riydi-ya?
- Bozorlarda bo'lar ekan,



- Zargarlarda turar ekan,

Uning oti tillaqosh,

O‘shanga og‘riydi-ya!

- Onajon, onajon!

Bo‘yniginam og‘riydi-ya.

- Bo‘yniginangdan onang aylansin,

- Nimalarga og‘riydi-ya?

- Bozorlarda bo‘lar ekan,

- Zargarlarda turar ekan,

Uning oti bo‘yintumor,

O‘shanga og‘riydi-ya!

- Onajon, onajon!

Quloqqinam og‘riydi-ya.

- Quloqqinangdan onang aylansin,

- Nimalarga og‘riydi-ya?

- Bozorlada bo‘lar ekan,

- Zargarlarda turar ekan,

Uning oti oltin sirg‘a.

O‘shanga og‘riydi-ya (Xalq qo‘shiqlari)

So‘zimizni iltijo shaklidagi qo‘shiqlar bilan davom ettiramiz. Shunday qo‘shiqlardan biri “Sust xotin” ya‘ni yomg‘ir chaqirish qo‘shig‘idir. “Sust xotin” zardushtiylarda yomg‘ir tangrisi (osmon suvlari xudosi) hisoblangan. Bahor oylarida yomg‘ir yetarlicha yog‘masa, “Sust xotin” qo‘shig‘ini aytib, xonadonlarga kirib yurishgan. Yig‘ilgan xayr-sadaqaga Sust xotinga atab is chiqarishgan. Quyidagi misralarda yomg‘ir hadya etish Sust xotindan iltijo qilinmoqda:



Hosillar mo‘l bo‘lsin, sust xotin,
Dehqonning uyi to‘lsin, sust xotin,
Yomg‘irlarni yog‘dirlsin, sust xotin,
Yomonning uyi kuysin, sust xotin,
Osmondan tomchi tashlab, sust xotin,
Elu-yurtni to‘ydirsin, sust xotin.

Momolarimiz, onalarimiz tomonidan ijro etiladigan yana bir qo‘shiq turi bu alladir. “Alla” qo‘shig‘i – bolalarni tinchlantirish va uxlatish uchun aytiladigan qo‘shiq. Bu qo‘shiqqa juda behisob ta‘riflar keltirish mumkin.

Qo‘shiqlarda nafasat tarbiyasiga oid ma‘lumotlar bilan birga jismoniy, aqliy, axloqiy tarbiyaga oid qarashlar ham katta o‘rin egallaydi. Quyidagi qo‘shiqda o‘z farzandini “salomlashishga” odatlantira olgan ota-ona maqtaladi:

Qizil-qizil olma terdim, tepa shoxdan egilib
Qizlarjon o‘tib boradir sochbog‘i yerga tegib.
Salom bersam alik oldi tol xivichdek egilib,
O‘stirgan onangga rahmat, o‘lmagaysan ko‘z tegib.¹

O‘z farzandini yaxshi tarbiyalay olmagan ota-onaning turli ta‘na va isnodga qolishi mana bu qo‘shiqda kuylanadi :

Ikki yuzing pishgan olma,
Noz etib hargiz buralma.
Ishdan hech bo‘yin tovlama,
Chiroylisan, ko‘rdik, kelin.
Onang seni o‘stirgan xom,
So‘zlarimni uqqin tamom.
Kattalarga bergil salom
Shunda qadring ortar, kelin.

¹ Алавия М. «Ўзбек халқ қўшиқлари». – Т., «Фан», 1959, 209-бет.



Odatda otani “Padari buzrukvor”, onani esa “Mehribon volida” deymiz. Chunki, har bir inson uchun otadan ulug‘ qadrdon, onadan mehribon va yaqin inson yo‘q. Ular siz bilan bizni dunyoga keltirib, ko‘z qorachig‘idek asrab avaylab voyaga yetkazibgina qolmasdan hamma vaqt quyosh yanglig‘ hayotimizga nur ato etadilar, tunimizni yorug‘, yo‘llarimizni oydin qiladilar. Shu boisdan ham, eng go‘zal dostonlar, eng yaxshi qo‘shiq, eng yoqimli kuylar ana shu ulug‘ zotlarga bag‘ishlangani bejiz emas.

Xalqimiz ijodidagi eng mazmunli sahifalar ham ota-onalarga bag‘ishlagan.

Ota – aql, ona – idrok.

Otangni quyosh deb bilsang,

Onangni oy deb bil

Ona kulsa xona to‘lar,

Ota kulsa g‘aming ketar.

Otasini og‘ritgan el ichida xor bo‘lur,

Onasini og‘ritgan parcha nonga zor bo‘lur kabi hikmatlarning har birida hayotiy haqiqat, buyuk insoniylik aks etgan deya olamiz.

Ayolni sevmagan, ardoqlamagan, kuylamagan kim bor dunyoda. Ehe, dunyoda ne-ne ulug‘ zotlar, sohibqironlar, sarkardalar, sultonlar, donishmandlar, daholar o‘tmadi deysiz. Bugungi ayol – uy bekasi, xizmatchi, olima, agronom, lekin, bu bir tomon, ammo u birinchi galda, kelgusi avlodni dunyoga keltiruvchi ona. Bu moborak, ulug‘ zot haqida qancha so‘z yuritsak, shuncha oz.

“Dunyo tor bo‘lganda ham, ona bag‘ri keng!”.

“Onani derlar – yerning quyoshi, bashariyat aqlu hissining boshi”.

“Onaning bir qo‘li beshikni, ikkinchi qo‘li dunyoni tebratadi”.



Oilada otaning ta’sir kuchi katta ekanligini faqat yoshlik yillaridagina emas, balki ulg’aygandan keyin ham his qilasan. O‘z otasini mehribon, g‘amxo‘r, talabchan, odil inson deb atay oladigan odamgina baxtlidir.

Ota bola uchun mustahkam tayanch, or-nomus, kelajagi yo‘lidagi orzu-umidi, haqiqat va adolat posbosi. Ijtimoiy va mehnat faoliyati bilan, yaxshi axloqi va xulqi bilan o‘rnak, har bir yaxshi ishda ustoz, murabbiy, saxovat va muruvvat maktabidir.

Oqil bobo shunday deydi: “Ey o‘g‘lonlarim, qizaloqlarim, yoshlikdan boshlab ota-onangizni qadriga yeting, ularning hurmati, izzat-ikromini joyiga qo‘ying, aytganlaridan chiqmang. Chunki, ota-ona hech qachon yomon bo‘l demaydi. Aksincha, o‘zini o‘tu suvga urib bolam bezavol o‘ssin, voyaga yetib, katta hayotga qadam qo‘ysin deb, o‘zini fido qilgudek bo‘ladi. Baxt-saodatingiz, kelajagingiz yo‘lida fidoiylik ko‘rsatishadi”.

“Otani – quyosh, onani — oy” deb bilgan xalqimiz ularning qadriga yetish, e‘zozlash, boshga ko‘tarish, padari buzrukvorining tuz haqini, volidayi mehribonining sut haqini oqlash har bir o‘g‘il-qizning vijdoniy burchi ekanligini alohida uqtiradi.

“Quyoshdan so‘rashibdi: Sening haroratingdan zo‘rroq harorat bormi?”

“Bor – javob beribdi Quyosh – Ona mehri mening taftimdan ham kuchliroq”.

O‘limdan so‘rashibdi: “Senga bas keladigan kuch bormi dunyoda?”

“Bor! – deb javob beribdi o‘lim” – “Ona mehri meni ham chekintiradi”.

Daryoyi azimdan so‘rashibdi: “Sendan kuchliroq jonzot bormi dunyoda?”

“Bor! – debdi Daryoyi azim” – “Ona mahri mendan kuchliroq, zo‘rroq”...

Ha, Ona mehri toshni eritadi, qahri tog‘ni qulatadi, daryoni jilovlay oladi...

Quyosh – haroratini, Oy – nurini, hayot – go‘zalligini Onadan olgan, deydi xalq. Tabiat tarovati, gullar isi, hayot nashidasi, inson ko‘rkamligi, odamiyligi, inson aql-idroki, fahm-farosati – bari-barisi onaizordan!



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumanazarova G. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari tilining lingvopoetikasi (leksik-semantik, lingvostilistik va lingvostatistik tahlil). – Toshkent., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston [Milliy kutubxonasi](#), 2012.
2. Rizayev S. O‘zbek tilshunosligida lingvostatistika muammolari. – Toshkent., Fan, 2006.
3. Jumanazarova G. Xalq dostonlarida saj’ va takrorning lingvopoetik imkoniyatlari. – Toshkent., Tafakkur nashriyoti, 2011.
4. www.literatura.uz
5. www.ziynet.uz
6. www.google.uz